

**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat universiteti  
Kuzatuv kengashining  
2025 yil 16 yanvardagi yig‘ilishining 1-son  
BAYONNOMASIDAN KO’CHIRMA**

**Qatnashdilar:**

**Kuzatuv kengashi raisi:** Ashurov Muxsin Xurramovich

**Kuzatuv kengashi kotibi:** Usmanova Dilafroz Qarshiyevna

**Kuzatuv kengashi a’zolari:** Djalolov Shavkat Amonovich, Saidmurodov Uktam, Eshankulov Shaxzod Eshquvvatovich, Shukurlayev Dilshod Dalerovich, Musinov Baxtiyor Muxamedjanovich, Raximov Pulat Raximovich, Yusupov Nosir Fatixovich, Abdulloyev Kamol Talatovich, Xalmuradov Rustam Ibragimovich, Soleyev Axmadjon Soleyevich, Ismayil Usmanovich Raxmanov.

**YIG‘ILISH KUN TARTIBI**

**3-masala.** Samarqand davlat universiteti Muhandislik fizikasi instituti qoshidagi «Mexanika, tribologiya, bio - va nano - texnologiyalar bo‘yicha ilg‘or tadqiqotlar markazi»ni tashkil qilish to‘g‘risida.

**Ma’ruzachi: Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar boshqarmasi boshlig‘i**

**H.Xushvaqtov**

Mexanika va tribologiyaning rivojlanishini ta’minalash, bir tomonidan ularning biotibbiyotda qo‘llanilishi va nanotexnologiyalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish, shu jumladan nanorobotika, ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqarishga o‘tkazish bilan ilmiy-tadqiqot faoliyatini uyg‘unlashtirish, shuningdek, malakali kadrlar tayyorlash maqsadida hamda O‘zbekiston ichida ham, xalqaro tadqiqot markazlari, birinchi navbatda, Germaniya, Rossiya, Yaponiya va Xitoyning xalqaro tadqiqot markazlari bilan ham sinergiyadan foydalanish, shuningdek, BAA sarmoyaviy firmalari bilan hamkorlikni o‘rnatish asosida i Samarqandni jahonga mashhur mexanika, tribologiya, bio- va nanotexnologiyalar markaziga aylantirish uchun Samarqand davlat universitetida «“Mexanika, tribologiya, bio- va nano-texnologiyalar bo‘yicha ilg‘or tadqiqotlar markazi”»ni tashkil qilish va ilmiy tadqiqotlarni yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shuning uchun universitetning Muhandislik fizikasi instituti qoshida «Mexanika, tribologiya, bio- va nano-texnologiyalar bo‘yicha ilg‘or tadqiqotlar markazi»ni tashkil qilish rejalashtirildi.

Markazga Berlin texnika universitetining professori Valentin Popovning ilmiy rahbarlik qilishga roziligi olingan.

Markazni tashkil qilish bo‘yicha masala batafsil muhokama qilinib, kuzatuv kengashi

**QAROR QILADI**

1. Universitetning Muhandislik fizikasi qoshida «Mexanika, tribologiya, bio- va nano-texnologiyalar bo‘yicha ilg‘or tadqiqotlar markazi» tashkil qilish to‘g‘risidagi taklif qo‘llab-quvvatlansin.

**Kengash raisi**

**M.X.Ashurov**

**Kengash kotibi**

**D.Q.Usmanova**